



O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

*I.f.n., dots. **Bozorov Berdimurod Ulug'murodovich**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
ORCID: 0000-0003-3267-0589
b.bozorovsamdu@gmail.com*

***Tuxliev Baxtiyor Maxmaziyevich**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
ORCID: 0000-0002-1763-2042
tuxliyevbaxtiyor@gmail.com*

Annotatsiya. *Ish bilan bandligini ta'minlanishi ijtimoiy – iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lar ekan qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlprini qondirish bilan bog'liq holatlar xorijiy iqtisodchi olimlar tajribalari o'rganilib, mamlakatimizda aholi ish bilan bandligini ta'minlashda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni hududlar bo'yicha taxlillar olib borish naktijasida ishsizlikni bartarafetish bo'yicha ilmiy – uslubiy tavsfiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *mehnat bozori. Bandlik demografik jarayon, mehnat resurslari, mehnat munosabatlari, infratuzilma, jamg'arma, ichki mehnat bozori, tartibga solish, ishsizlik sabablari talab va takliflar.mezion infratuzilma.*

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ РЫНКА ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ

*к.э.н., доц. **Бозоров Бердымурад Улугмурадович**
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова
Тухлиев Бахтиёр Махмазияевич
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова*

Аннотация. *Поскольку обеспечение занятости проявляется как социально-экономическое явление, на основе опыта зарубежных экономистов даются научно-методические описания элиминатсии ситуаций, связанных с удовлетворением личных и общественных потребностей, не противоречащих правовым документам.*

Ключевые слова: *Рынок труда, занятость, демографический процесс, трудовые ресурсы, трудовые отношения, инфраструктура, сбережения, внутренний рынок труда, регулирование, причины безработитсы, спрос и предложение.*

WAYS TO PROVIDE EMPLOYMENT THROUGH THE DEVELOPMENT OF THE LABOR MARKET IN UZBEKISTAN

*PhD, assoc. prof. **Bozorov Berdimurad Ulugmuradovich**
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Tukhliev Bakhtiyor Makhmaziyaevich
Samarkand State University named after Sharof Rashidov*

Abstract. *Since ensuring employment manifests itself as a socio-economic phenomenon, based on the experience of foreign economists, scientific and methodological descriptions are given of the elimination of situations related to the satisfaction of personal and social needs that do not contradict legal documents.*

Key words: *Labor market, employment, demographic process, labor resources, labor relations, infrastructure, savings, internal labor market, regulation, causes of unemployment, supply and demand.*

Kirish.

Bozor munosabatlari tizimida mehnat bozori muhim o'rinni egallaydi. Mana shu bozorda mehnatga qobiliyatli kishilar va davlat biror bir jamoa va xususiy tashkilotlarning nomidan ish ko'ruvchilar va ish beruvchilarning manfaati to'qnash keladi. Mehnat bozorida vujudga keladigan munosabatlar yaqqol ifodalangan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lib, ular mamlakat aholisi ko'pchiligining muhim ehtiyojlariga daxldor bo'ladi. Mehnat bozori mexanizmi orqali aholining ish bilan bandligi va mehnatga haq to'lash darajalari belgilanadi. Mehnat bozorida ro'y berayotgan jarayonlarning jiddiy oqibati ishsizlik bo'lib, u umuman olganda salbiy hodisa hisoblansa ham, lekin amalda jamiyat hayotining muqarrar natijasidir.

Mehnat va aholi ish bilan bandligi sohasida bozor aloqalarini rivojlantirish yangi va o'xshash bo'lmagan yondashishni, mehnat bozori elementlarini o'rganishda muntazamlikni, bozor kategoriyalari va tushunchalarining uslubiy bazasini yangilashni talab etadi. Iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kelgusida aholini oqilona ish bilan bandligi sohasidagi institutsional tuzilmalar faoliyatlarini jadallashtirish va normativ- huquqiy bazalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga ega va dolzarb mavzu bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar sharhi.

Ba'zi iqtisodchi olimlarning qarashlarida mehnat bozori infratuzilmasi mohiyatini ifodalashda quyidagi ta'riflarni uchratish mumkin: «kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, bandlik jamg'armalari, reklama bilan shug'ullanuvchi firmalar va boshqalar» (Rofe, Zbo'shko, & other, 1994).

Cherneykoning (1999) fikricha: «mehnat bozoridagi jami iqtisodiy, huquqiy va boshqaruv institutlari, tashkilotlar va faoliyat turlari uning funksiyalarini amalga oshirilishida ko'maklashishi zarur».

Shuningdek, Varfolomeeva (2001) ta'kidlaydiki: «Mehnat bozori infratuzilmasi – bandlikka ko'maklashuvchi institutlar tizimi va boshqarish mexanizmlari sifatida mehnat

bozorida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi iqtisodiy jihatdan foydali o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi tizimdir».

Abdurahmonov (2009) mehnat bozori infratuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritib berishda aniq ta'rifni bergan. Unga muvofiq mehnat bozori infratuzilmasi – davlat muassasalarini, ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi nodavlat tuzilmalarini, korxonalar va firmalarning kadrlar xizmatini, jamoat tashkilotlari va jamg'armalarini, ish kuchini talab va taklif qilish o'rtasidagi eng samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi normativ-huquqiy muhitni o'z ichiga oladi, ular ishchi kuchiga ehtiyoj bilan taklif o'rtasidagi eng samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

Smitning (2007) fikricha, iqtisodiyotda aholi ish bilan bandligini hajmi bir ishchiga bo'lgan o'rtacha ish haqi stavkasi darajasida aniqlanadi, agar u ortsa, u holda ish bilan bandlikni ta'minlash imkoniyati pasayadi.

Mehnat bozorini tartibga solish neoklassik nazariya namoyondalaridan bo'lgan Marshall (1993) tomonidan ham o'z asarlarida tadqiq etilgan. Marshall (1993) mehnat bozorini tadqiq qilgan holda, uning o'z-o'zini tartibga solish tizimini mukammal emasligini tavsiflagan edi: «Mahsulot bozorida bitimlar tuzilganda ustunlik tomonlar o'rtasida butunlay teng taqsimlanishi mumkin, ammo ishchi kuchi bozorida esa ustunlik ko'pincha sotuvchilar emas, balkim sotib oluvchilar tomonida bo'ladi».

Neoklassik nazariyaga ko'ra, mehnat bozorini tartibga solishga aralashish muayyan mamlakat hukumati tomonidan amalga oshiriladigan ishsizlikni kamaytirish usullari vositasida sodir bo'ladi. Ishsizlikning asosiy sabablaridan biri sifatida yuqori ish haqi bo'lib hisoblanadi. SHunga ko'ra, Pigu (1985) va uning zamondoshlari ish haqini kamaytirish, kasaba uyushmalariga ish haqini oshirish haqidagi ularning talabi ishsizlik darajasini o'sishiga olib kelishini tushuntirish kerakligi, yuqori bo'lmagan ish haqiga talabgor ishchilarni davlat tomonidan ish bilan ta'minlash, xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni taklif qilardilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Aholini ish bilan bandligini va ishsizligini kamaytirish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash hamda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksichlash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar muhokamasi.

Respublikamizda bozor islohotlari jarayonlarini avj oldirish hozirgi kunda mehnat bozori sub'ektlarining yangi mehnat tuzilmalariga bo'lgan qiziqishlarini va yangi maqsadlari shakllanishi jarayonlari faol avj olishiga olib kelmoqda hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif shakllanishini yuzaga keltirmoqda. Bir vaqtning o'zida mehnat bozori sub'ektlarining o'zaro aloqalarini jamoa-shartnomaviy va normativ-huquqiy bazalarini doimiy rivojlantirish, mehnat bozori infratuzilmalarini kelgusida rivojlantirishni talab qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday iqtisodiy munosabatning tashkiliy-iqtisodiy bazasiz amalga oshirish samarasizdir. Shuning uchun ham mehnat bozori infratuzilmasidagi ish faoliyatini tashkil qilish asoslarini ilmiy asosda yoritish samarali mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Mehnat bozorini to'liq ishlashi uchun rivojlangan infratuzilmani shakllantirish lozim. Mehnat bozori faoliyat ko'rsatishining sifat ko'rsatkichlarini eng muhim mezon uning infratuzilmasining rivojlanish darajasidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mehnat bozorida ishsizlarning 90%ga yaqini munosib ishga joylashishga ko'maklashish yuzasidan muhtojlik sezmoqda. Munosib ish o'rinlari – bu ishchilarga qiziqarli va qo'lidan keladigan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan ish o'rinlaridir. Munosib ish joyiga ega bo'lish uchun mehnat bozorida ishchi kuchi ancha raqobatbardosh bo'lishi zarur. Ishlab chiqarishning yoki tashkilotda boshqarishning ratsional

tashkil etilishi va modernizatsiyalashishi natijasida kadrlarning taqchilligi yuzaga kelmoqda. O'z vaqtida ish joyini o'zgartirish, qayta tayyorgarlik, bo'sh ish joylariga qabulning to'xtatilishi, kadrlarni ishdan bo'shatishga ijtimoiy yo'naltirilgan tanlab olishning amal qilishi, personalni qisqartirish yoki qabul qilishni rejalashtirish yo'li bilan ichki mehnat bozorini tartibga solishni zarurat etmoqda.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan taklif va talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qaerdaligidan qat'i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Aholining ish bilan bandlik toifasi faqat iqtisodiy komponentlar bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir. Shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik uning asosiy hususiyati hisoblanadi.

Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lar ekan, uni quyidagicha ta'riflash mumkin. Ish bilan bandlik - fuqarolarning qonun xujjatlarida zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Iqtisodiyotning sifat jihatidan oldingisidan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi uchun ish bilan ta'minlashning muayyan modeli mos keladi, chunki uning asosiy xususiyatlari jamiyat faoliyatining muhim jarayonlarini ochib beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat muammolari ichida insonning shaxsi va talab-ehtiyojlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish omadsizlikka mahkum etadi. SHuning uchun dastlab olimlar o'z tadqiqot ishlarida ish bilan bandlik muammolarini ko'rib chiqayotganlarida asosan, uning iqtisodiy jihatlariga e'tibor bergan bo'lsalar, keyingi paytda ish bilan bandlikning ijtimoiy jihatlarini to'g'risida tobora ko'prok gapirilayotganligi bejiz emas.

Aholini ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga xos xususiyatlar, shu jumladan, ish bilan bandlik turlari, kasb-malaka guruhlari bo'yicha taqsimlashdagi qonuniyatlar kishilarning yoshi va jinsi bo'yicha farqlanishi bilan ifodalandi.

Mehnat bozori ham, barcha bozorlar kabi talab va taklif asosida shakllanadi. Bunda talab, bo'sh ish o'rinlarini egallashga bo'lgan ehtiyoj, taklif esa – band qilinmagan ishchi kuchining mavjudligi yoki ish o'rnini o'zgartirish istagi sifatida maydonga chiqadi. Bu borada mehnat bozorlarini chuqur o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini o'tkazish talab etiladi. Mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillarni alohida ko'rsatib o'tish zarur. Aholi bandligini tartibga solish va ishchi kuchini samarali taqsimlashning yangi mexanizmlarini shakllantirishning bozor tamoyillari va ijtimoiy-mehnat munosabatlarining transformatsiyasi mehnat sohasida yangi tendensiyalarni paydo qilmoqda. Bu borada bir qator tadbirlarni:

- mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning tutgan o'rniga baho berish;
- O'zbekiston Respublikasida davlatning aholini bandligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlarini tahlil qilish va ishchi kuchini samarali taqsimlashga erishishga qaratilgan mexanizmini ekonometrik modelini ishlab chiqish;
- O'zbekistonda yoshlar mehnat bozorini tadqiq qilish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni hamda uni amaliyotga joriy etishni talab etiladi.

Milliy xususiyatlarimizga bog'liq ravishda mahalliy aholining o'troq holda yashashi tufayli, mamlakatimizda hududiy mehnat bozorlarini rivojlantirishga urinish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekitonda shu jumladan samarqand viloyatida ham mehnat resurslar soni yildan- yilga ortib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki samarqand viloyati mehnat resurslari 2022 yilda 2160,4 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilda 2103,4 ming kishi bo'lgan. 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 102,7% o'sishi kuzatilgan. Shu bilan birga, mehnat resurslarining 2022 yilda doimiy aholiga nisbatan ulushi 52,4% bo'lsa, 2018 yilda esa 55,9% bo'lgan. Viloyat mehnat resurslarining asosiy qismini mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi tashkil etadi. Mazkur aholi 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 2154,3 ming kishi bo'lsa, 2018 yilda 2092,5 ming kishi bo'lgan. Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 103,0% o'sgan. Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholining ulushi 2022 yilda doimiy aholiga nisbatan 52,3% bo'lsa, mehnat resurslariga nisbatan 99,7% tashkil etadi.

Samarqand viloyati mehnat resurslari shahar va qishloq hududlari bo'yicha tahlil qilinganda, 2022 yilda 2018 yilga nisbatan mehnat resurslari soni 2103,4 ming kishidan 2160,4 ming kishiga yoki 102,7 %ga o'sgan, 2022 yilda mehnat resurslarining 43,2%i yoki 932,6 ming kishi shaharda yashagan bo'lsalar, 56,8 %i yoki 1227,8 ming kishi qishloq joylarida bo'lgan. Samarqand viloyati shaharmehnat resurslari 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 110,8%ga ortgan, qishloq mehnat resurslari 97,3%ga kamaygan (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyati hududlar kesimida mehnat resurslari soni, (ming kishi)

	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yil 2018 yilga nisbatan, %
Jami mehnatresurslari	2103,4	2117,1	2130,4	2142,3	2160,4	102,7
Shahar	841,7	846,2	875,2	901,3	932,6	110,8
jamiga nisbatan foizda	40,0	40,0	41,1	42,1	43,2	-
Qishloq	1261,7	1270,9	1250,0	1241,0	1227,8	97,3
jamiga nisbatan foizda	60,0	60,0	58,7	57,9	56,8	-

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Samarqand viloyatida mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 2022 yilda 1642,9 ming kishi bo'lib, 2018 yilga (1620 ming kishi) nisbatan 101,4%ga o'sish tendensiyasiga ega. Viloyatda iqtisodiy nafaol aholi miqdori 2018 yilda 482,8 ming kishini tashkil etib, 2022 yilda 517,5 ming kishiga etgan yoki 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 107,2% o'sgan (2-jadval).

2-jadval

Samarqand viloyatida mehnat resurslari tarkibi, (ming kishi)

	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yil 2018 yilga nisbatan,%
Jami mehnat resurslari	2103,4	2117,1	2130,4	2142,3	2160,4	102,7
iqtisodiy faol aholi	1620,6	1604,2	1585,4	1599,7	1642,9	101,4
iqtisodiy nafaol aholi	482,8	512,9	545,0	542,6	517,5	107,2

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Samarqand viloyati hududlar kesimida iqtisodiy faol aholi tahlillarga ko'ra, Kattaqo'rg'on shahrida 2022 yilda (37,9 ming kishi) 2018 yilga (36,9 ming kishi) nisbatan 107,6% ga o'sgan bo'lsa, Samarqand shahrida bu ko'rsatkich 2018 yilda 258,0 ming kishidan, 2022 yilda 257,7 ming kishiga yoki 99,9%ga kamaygan. Viloyat tumanlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi eng yuqori

ko'rsatkichlar Tayloq (120,3%), Samarqand (108,7%), Urgut (108,4%), Bulung'ur (104,5%), Narpay(104,4%) hamda Jomboy (104,3%) tumanlarida o'sish tendensiyasiga ega hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Samarqand viloyatida hududlar kesimida iqtisodiy faol aholi, (ming kishi)

	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yil 2018 yilga isbatan,%
Samarqand viloyati	1620,6	1604,2	1592,9	1599,7	1642,9	101,4
Samarqand sh.	258,0	259,3	249,0	270,8	257,7	99,9
Kattaqo'rg'on sh.	36,9	36,0	35,3	37,3	39,7	107,6
tumanlar:						
Oqdaryo	69,7	71,2	67,9	68,5	71,5	102,6
Bulung'ur	78,6	78,1	77,1	70,3	82,1	104,5
Jomboy	70,5	71,0	68,1	68,2	73,5	104,3
Ishtixon	105,9	107,5	99,3	96,6	98,5	93,0
Kattaqo'rg'on	117,4	120,2	106,2	110,0	109,1	92,9
Qo'shrabot	54,3	54,3	54,5	48,8	50,5	93,0
Narpay	89,1	91,6	96,2	95,3	93,0	104,4
Payariq	103,4	103,8	99,6	97,5	97,9	94,7
Paxtachi	60,9	58,7	59,8	54,8	58,8	96,6
Pastdarg'om	148,3	123,7	135,2	138,1	140,8	94,9
Samarqand	105,3	105,3	106,6	109,5	114,5	108,7
Nurobod	61,2	60,4	61,9	61,3	63,0	102,9
Urgut	186,7	187,3	192,8	187,3	202,4	108,4
Toyloq	74,7	75,9	83,4	85,4	89,9	120,3

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Ish bilan band bo'lganlar sonining kamayishi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlik tarkibining jiddiy ravishda o'zgarishi, ish bilan norasmiy bandlik ko'lamlarining kengayishida o'z ifodasini topadi. Ushbu jarayonlar shakllanishining qonuniyatlarini aniqlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilashda mahalliy miqyosdagi mehnat resurslarini iqtisodiy tarmoqlar o'rtasida taqsimotini to'g'ri tashkil etish, yangi tashkil etiladigan korxonalarini rejalashtirishda aholi soniga nisbatan proporsionallikni ta'minlashaholining ish bilan bandligini tarkibiy jihatdan o'zgartirish dasturlarini ishlabchiqish nihoyatda muhimdir. Keltirilgan vazifalarni amalga oshirilishi o'z navbatida mamlakat aholisi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion iqtisodiyotda yangi xodimlarni saralash, ularning mehnatini tashkil etish, ish haqini belgilash va ish vaqtini samarali tashkil etishda ish bilan bandlikning yangi shakllaridan foydalanish korxonalarini faoliyatini ishlab chiqarish va bozorning o'zgaruvchan talablariga tezkor moslashishini ta'minlovchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash, turmush darajasini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish ustuvor yo'nalishlar qatorida belgilandi.

Ushbu yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlartajribalarini tadqiq etgan holda o'zimizga xos bo'lgan yo'nalishni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, ma'lum aholi guruhini mehnat faoliyatiga jalb qilish, ularning mehnatini samarali tashkil etish, ishsizlik darajasini va tadbirkorlarning xarajatlarini kamaytirishda ish bilan bandlikning egiluvchan shakllaridan foydalanish muhimdir.

Iqtisodiyotning turli sohalarida egiluvchanlik darajasi turlicha. Masalan, davlat sektorida xususiy sektorga nisbatan mehnatni tashkil etishning egiluvchan shakllari kam qo'llaniladi. Rivojlangan hududlarda, quyi rivojlangan hududlarga nisbatan egiluvchanlikning boshqa

shakllari qo'llaniladi. Ish bilan bandlikning egiluvchan shakllari farqlanishiga qaramay mehnatni tashkil etishda umumiy ko'rinishga ega bo'lgan ma'lum guruhlarni alohida tahlil qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlar ish bilan bandlikning shakllarini ham mohiyatini o'zgartirdi. 1970 yillardan boshlab ish bilan bandlikning takomillashgan shakllari XXI asrda mehnat munosabatlarining asosi sifatida e'tirof etilgan – egiluvchan ish bilan bandlik tizimini shakllanishiga asos bo'ldi.

So'nggi yillarda respublikamizda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining o'sishi umumiy aholi soni o'sishiga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Keyingi yillarda mamlakatimiz mehnat bozori 500-600 mingdan ziyod kishiga ko'payib bormoqda (OTMga o'qishga kirgan, pensiyoga chiqqan va ishdan bo'shaganlardan tashqari). Mehnat bozorida o'z o'rnini topa olmaganlarni hisobga olgan holda 2022-yildagi ko'rsatkichlarga ko'ra ishga joylashishga muhtoj bo'lganlar soni 1,4 mln. kishini tashkil etadi. Bundan tashqari norasmiy sektorda samarasiz ish bilan band (yashirin ishsizlar, to'liqsiz va vaqtinchalik ish bilan bandlik) bo'lganlarning ko'pchiligi hamda iqtisodiy nafaol aholi qatlami ishga joylashtirishga muhtojdir. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ularning soni 400-500 ming kishi atrofida. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikada 2 mln.ga yaqin yangi ish o'rinlariga talab mavjud. Hozirgi davrda iqtisodiyotda yaratilayotgan real ish o'rinlari esa bunday yuqori talabni qondira olmayapti.

Shu sababli, mehnat bozoridagi davlat siyosatini takomillashtirish lozim. Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida muvozanat ta'minlanmasa kelgusida iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyati bo'lmaydi.

4-jadval

Samarqand viloyatida hududlar kesimida iqtisodiyotda ish bilan bandlar (ming kishi)

	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yil 2018 yilga nisbatan, %
Samarqand viloyati	1463,3	1455,8	1418,3	1441,3	1489,5	101,8
Samarqand sh.	235,6	236,7	223,2	246,3	235,7	100,0
Kattaqurg'on sh.	33,4	32,8	31,5	33,7	36,1	108,0
tumanlar:						
Oqdaryo	62,6	64,4	60,4	61,7	64,7	103,4
Bulung'ur	70,6	71,0	68,7	63,1	74,4	105,4
Jomboy	63,6	64,4	60,5	61,4	66,6	104,7
Ishtixon	95,8	97,5	88,3	86,9	89,3	93,2
Kataqug'on	105,9	109,0	94,6	99,1	98,8	93,3
Qushrabot	48,5	49,2	48,3	43,8	45,7	94,2
Narpay	79,9	83,1	85,5	85,9	84,1	105,3
Payariq	93,3	94,2	88,5	87,6	88,4	94,7
Paxtachi	54,7	53,1	53,1	49,1	53,1	97,1
Pastdarg'om	133,7	111,9	120,1	124,1	127,2	95,1
Samarqand	94,8	95,5	95,1	98,7	103,5	109,2
Nurobod	55,3	54,8	55,1	55,0	57,0	103,1
Urgut	168,2	169,6	171,3	168,2	183,5	109,1
Toyloq	67,4	68,7	74,1	76,7	81,4	120,8

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Samarqand viloyatida iqtisodiyotda ish bilan band bo'lgan aholi miqdori 2018 yilda 1463,3 ming kishi bo'lib, 2022 yilda 1489,5 ming kishiga yoki 101,8%ga ortgan. 2022 yilda 2018 yilga nisbatan tahlil qilinganda viloyatning Samarqand shahrida iqtisodiyotda ish bilan bo'lganlar miqdori deyarli o'zgarmagan, Kattaqurg'on shahrida esa ish bilan band bo'lgan aholi 108,0%ga ortgan. Viloyatning hududlar kesimida ish iqtisodiyotda ish bilan bandlar Oqdaryo

(103,4%), Bulung'ur (105,4%), Jomboy (104,7%), Narpay (105,3%), Samarqand (109,2%), Nurobod (103,1%), Urgut (109,1%) hamda Toyloq (120,8%) tumanlarida yuqori bo'lgan. Viloyatning Ishtixon (93,2%), Kattaqo'rg'on (93,3%), Qo'shrabod (94,2%), Payariq (94,7%), Paxtachi (97,1%) hamda Pastdarg'om (95,1%) tumanlarida iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lganlar kamaygan (5-jadval).

5-jadval

Samarqand viloyati hududlar kesimida ishsizlar (ming kishi)

	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-yil 2018-yilga nisbatan, %
Samarqand viloyati	157,3	148,4	174,6	158,4	153,4	97,5
Samarqand sh.	22,3	22,6	25,8	24,5	22,0	98,7
Kattaqurg'on sh.	3,4	3,3	3,8	3,6	3,6	105,9
tumanlar :						
Oqdaryo	7,0	6,8	7,5	6,8	6,8	97,1
Bulung'ur	8,0	7,0	8,4	7,1	7,7	96,3
Jomboy	6,9	6,6	7,6	6,8	6,9	100
Ishtixon	10,1	10,0	11,0	9,8	9,2	91,1
Kataqug'on	11,5	11,1	11,6	10,6	10,3	89,6
Qushrabot	5,8	5,1	6,2	5,1	4,8	82,8
Narpay	9,2	8,5	10,7	9,5	8,9	96,7
Payariq	10,0	9,6	11,1	9,9	9,5	95,0
Paxtachi	6,1	5,6	6,7	5,7	5,7	93,4
Pastdarg'om	14,6	11,7	15,1	14,0	13,6	93,2
Samarqand	10,5	9,9	11,5	10,8	11,0	104,8
Nurobod	5,9	5,7	6,8	6,3	6,0	101,7
Urgut	18,5	17,7	21,5	19,1	18,9	102,2
Toyloq	7,4	7,2	9,3	8,7	8,5	114,9

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Samarqand viloyati hududlar kesimida ishsiz bo'lgan shaxslar tahlil qilindi. Viloyat hududlari bo'yicha 2022 yilda 153,4 ming kishi, 2018 yilda 157,3 ming kishini tashkil qilgan. Samarqand shahrida ishsizlar 2018 yilda 22,3 ming kishi, 2022 yilda 22,0 ming kishiga yoki 98,7%ga kamaygan. Viloyatning Kattaqo'rg'on shahrida ishsiz bo'lgan fuqarolar 2022 yilda 3,6 ming kishi, 2018 yilda 3,4 ming kishi bo'lgan. Kattaqo'rg'on shahrida ishsizlar miqdori 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 105,9%ga o'sgan. Shuningdek, Samarqand viloyatining Samarqand (104,8%), Nurobod (101,7%), Urgut (102,2%) hamda Toyloq (114,9%) tumanlarida ham ishsiz bo'lganlar miqdori yuqori bo'lgan. Viloyatning Qo'shrabod (82,8%) hamda Kattaqo'rg'on (89,6%) tumanlarida ishsizlik darajasi keskin kamaygan. Bunga asosiy sabablar sifatida yangi ish o'rinlarini yaratilishi bilan bog'liqligi hisoblanadi.

Viloyatda ishsizlik darajasi 2018 yilda 9,7%, 2019 yilda 9,3%, 2020 yilda 11,0%, 2021 yilda 9,9% hamda 2022 yilda 9,3% bo'lgan. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, ishsizlik darajasi 2022 yilda Samarqand shahrida 8,5% hamda Kattaqo'rg'on shahrida 9,0% tashkil etib, viloyat o'rtacha ishsizlik darajasidan past bo'lgan. Shu bilan birga, Oqdaryo (9,5%), Kattaqo'rg'on (9,4%), Qo'shrabod (9,5%), Narpay (9,6%), Payariq (9,7%), Paxtachi (9,7%), Pastdarg'om (9,6%), Samarqand (9,6%), Nurobod (9,5%) hamda Toyloq (9,4%) tumanlarida viloyat ishsizlik darajasidan yuqori hisoblanadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri - bu takomillashgan mehnat bozorini shakllantirish va uning samarali amal qilishini ta'minlash hisoblanadi. Respublikamizda ijtimoiy jihatdan etarli darajada himoya qilinmagan yoshlar orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo'lmoqda. Bunday holat mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini

ta'minlash, ularning ishsizligini kamaytirishning samarali usullari va mexanizmlarini tadqiq etishni talab qilmoqda.

Mamlakatimiz aholisi yosh jihatidan ancha yosh hisoblanadi, mehnat resurslari tarkibiga kirib keluvchilar, ya'ni mehnat qobiliyati yoshiga kelib qo'shiluvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Buning asosiy sababi sobiq Ittifoq davrida va mustaqilligimizning dastlabki yillarida respublikamizda aholini tez sur'atlar bilan ko'payishi natijasida hozirgi kunga kelib, demografik bosimning ortishiga olib keldi. Oqibatda yoshlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarining ishsizligini kamaytirish va ularning ish bilan bandligini ta'minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda. Yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, ularning mehnat bozorida hatti-harakati qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy echimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining yeng muhim jihatlaridan biri - uning mehnat sohasi va u bilan bog'liq bo'lgan yehtiyolarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik odamlar ish joylari qayerdaligidan qat'i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli odamlarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir.

Aholining oqilona ish bilan bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi; yollanma ishkuchiga mehnat haqini (narxini) eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatgaqobiliyatli o'smirlar, pensionerlar, ko'p bolalik ayollar va nogironlar ish bilan bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va safarbarligini oshirish, ish bilan bandlik xizmati infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

- Abdurahmonov Q.X. (2009) *Mehnat iqtisodiyoti (darsligi) IT.*; "Mehnat", -238-b.
- Cherneyko D.S. (1999) *Formirovanie rynka truda: opyt, problemy.* -SPb.: SP6GUEF, - S. 122.
- Marshall A. (1993) *Prinsipy ekonomicheskoy nauki / T. 1.* - M.: Progress. - S.18.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi 2022 yil.
- Pigu A. (1985) *Ekonomicheskaya teoriya blagosostoyaniya / T2.* - M.: Progress. - S. 241-247.
- Rofe A.I., Zbo'shko B.G., Ishin V.V. (1994) *Rynok truda, zanyatost naseleniya, ekonomika resursov dlya truda.* -M.: - S. 154.
- Smit A. (2007) *Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov.* - M.: Eksmo, - (Seriya: Antologiya ekonomicheskoy mysli). - S. 208-222.
- Varfolomeeva O.A. (2001) *Stanovlenie infrastrukturo' ro'nka truda v perexodnoy ekonomike.* -SPb., Izdatelstvo SPvUEF. - S. 25.